

USTOZLAR MINBARI

XALQARO VA MILLIY HUQUQNING O'ZARO NISBATI MUAMMOLARI

Yuldash Jo'rayev

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi devonining mas'ul xodimi,
yuridik fanlar doktori*

Abstract

The 21st century is characterized by the strengthening of historical legitimacy, as well as the internationalization of the life of human society. Despite the presence and diversity of state borders, the mutual relations of countries in a single international society are growing. International relations have a great influence not only on the life of states, but also on each individual person. The system of international relations is regulated by a specific field of law - international law. It affects to a greater or lesser extent the various relations of the states. The influence of international law on national law and the internal life of the state is also increasing. International law norms are gradually becoming part of the national legal system. Universally recognized principles and norms of international law have a special place as a component of the national legal system. It is natural to ask the question, what is wrong with considering generally recognized principles and norms of international law as having priority over national law? Opinions and conclusions on this topic are analyzed in the article.

Key words

Constitution, international relations, international law, national law, principle, norms, article, law, state, independence

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi mamlakatimiz siyosiy-huquqiy hayotida chinakam ulkan tarixiy voqeaga aylandi. Yurtimizda yangi konstitutsiyaviy-huquqiy davr boshlandi. Tarixiy obidalarni qayta tiklash yoki ta'mirlash ishlari dastlab ularning fundamentidan boshlangani kabi, Yangi O'zbekistonning konstitutsiyaviy

fundamenti, rivojlanishimiz shiddatlari va ko'lamiga mos ravishda "kuchaytirildi". Konstitutsiyada "yangilangan fundament"ga taalluqli shunday holatlar borki, ularni teranlik bilan anglash va hayotga izchil tatbiq etish, ko'zlangan maqsadga erishishning birdan bir to'g'ri yo'lidir. Ayniqsa, tashqi dunyo bosimi va xavflariga qarshi konstitutsiyaviy to'siq va himoyaning mazmun-mohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

E'tiborimizni tortgan narsa Konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilinishi bilan xalqaro huquq va milliy (o'zbek) huquqining bir-biriga nisbatida yuz bergan yangilik bo'ladi. Ilgarilari xalqaro huquq yoki xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari milliy huquqdan ustuvor, deb hisoblangan. Bunday fikr ko'plab darslik, ilmiy manbalar va ilmiy-ommabop adabiyotlarda, shuningdek vaqti matbuotda tez-tez uchrab turgan. Bunday fikrlovchilarni qoralashga haqqimiz yo'q, chunki ularning fikrlari ilgarigi konstitutsiya muqaddimasidagi "xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda" tamoyiliga asoslangan edi.

Konstitutsiyaning yangi tahriri bu masalada tub burilish yasadi. Uning muqaddimasidan "ustunligini tan olgan holda" so'zlari chiqarib tashlanib, ularning o'rniga "xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda", degan qoida belgilandi.

Shunga qaramay, hozirgi kunda ham matbuot va ilmiy manbalarda xalqaro huquq – milliy huquqdan ustuvor, deb hisoblaydiganlar uchrab turadi (Qarang: Fayziyeva D. Milliy manfaatlarni ilgari surishda parlamentlararo muloqot. // "Xalq so'zi", 2023-yil, 27-iyun). Yangilash fikrlovchilarni Konstitutsiya Muqaddimasida "ustunligini tan olgan holda" so'zlari bekor qilinib, ularning o'rniga "asoslangan holda" so'zlari qo'llanilganligi ham qiziqirmaydi chog'i.

Demak, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning Muqaddimasida "ustunlik" to'g'risida mutlaqo gap ketmagan. Uning boshqa qoidalarda ham bu masala ko'zda tutilmagan. Unda "xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda" so'zlari bitilgan. "Ustunlik" bilan "asoslangan"lik orasida katta farq borligi shubhasiz. Zero, "asoslangan"lik va "ustunlik" bir xil ma'no beradi, deyish siyosiy xato hisoblanadi. Bu xato milliy huquq obro'siga putur yetkazadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, xalqaro huquqning milliy huquqdan ustuvorligini targ'ib qilganlar Konstitutsiyaning 15-moddasi birinchi qismida keltirilgan "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi" degan qoidaga e'tibor bermaganlar.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarini milliy huquqdan ustuvor, deb hisoblashning nimasi yomon?, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga qisqacha javob: xalqaro huquq ustuvorligi o'ziga xos majburiyat bo'lib, uning ma'nosi O'zbekiston davlati umume'tirof etilgan xalqaro prinsip va normalarni, garchi ular rasman tan olinmagan bo'lsa-da bajarilishi shart, deb hisoblashga asos bo'ladi. Endilikda "ustunligini tan olgan holda" tamoyilining bekor qilinganligi bunday majburiyatning ham bekor bo'lganligini anglatadi.

Demak, yangilangan Konstitutsiya tarixiy xatoga barham berdi.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarining milliy huquqdan ustuvor bo'la olmasligining yana bir asosi – Konstitutsiyaning 15-moddasiga kiritilgan o'zgartirishga ko'ra ularning milliy huquqiy tizim tarkibiy qismi, deb belgilanganligidir. Demak, milliy huquqiy tizim tarkibiy qismi bo'lganligi uchun ularni endi milliy huquqdan ustuvor, deb bo'lmaydi.

Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy davlatlar konstitutsiyasida xalqaro huquqning ustuvorligi to'g'risida qoida berilmagan. Ularning aksariyatida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari milliy huquqning tarkibiy qismi hisoblanadi, degan qoidalar belgilangan.

Xalqaro huquqni ustuvor deb ta'kidlovchilar o'z pozitsiyalarini bermasdan, endilikda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarini milliy huquqiy tizim tarkibiy qismi sifatida belgilanganligini ham matbuotda ularni milliy huquqqa nisbatan ustuvorligi sifatida talqin qilmoqdalar. Bu Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishni noto'g'ri tushunishdir.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarining milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos o'рни bor. Ularni milliy qonunchilik (normativ-huquqiy hujjatlar) bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Ular milliy qonunchilik sifatida bevosita amaliyotga tatbiq etiladi yoki boshqa mexanizmlar orqali ta'minlanadi, deb hisoblash mumkin emas. Ular fuqarolarning huquqlarini milliy qonunchilik bilan teppa-teng tarzda himoya qilinishini ta'minlaydi, deyish ham xato bo'ladi. (Qarang: "Xalq so'zi" gazetasi, 27-iyun) Bu prinsip va normalar milliy huquqiy tizimga kirgani bilan, faqat bittagina holatda qo'llanilishi mumkin. Ya'ni O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida qonunda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsagina shartnoma qoidalari qo'llaniladi. Bu qoidani umumdavlat majburiyati deb emas, balki qonun qo'llovchiga qo'shimcha imkoniyat berilishi, deb qaralishi kerak.

Matbuotda ta'kidlangan xalqaro huquqni ustuvor deb hisoblash O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini xalqaro hujjatlarga muvofiq ishlab chiqish va qabul qilish, davlat organlari hamda mansabdor shaxslar tomonidan qarorlar qabul qilish ularning talabiga rioya etilishini ta'minlaydi, degan xulosalar ham yanglish hisoblanadi. Bunday xulosaning xatoligi shundan iboratki, qonun hujjatlari xalqaro hujjatlarga asoslanib emas, Konstitutsiyaga asoslanib ishlab chiqiladi va qabul qilinadi, davlat organlari hamda mansabdor shaxslar qarorlar qabul qilishda xalqaro hujjatlarning talablariga emas, Konstitutsiya va qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar.

Fuqarolar davlat organlari bilan munosabatlarda, surishtiruv olib borishda, sud-tergov amaliyotida va boshqa hollarda o'z huquqlarini himoya qilishda xalqaro hujjatlardan kafolatlar sifatida foydalanadilar, deyish ham xato bo'lar edi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlari, avvalo, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan. (Qarang: "Xalq so'zi", 27-iyun 2023-yil №131)

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan deganda ularga nisbatan hurmat-e'tibor ko'rsatilishini, uzviy bog'liqlik namoyon etilishini, ulardan andoza sifatida foydalanishni yoki rahbariy asos (prinsip), deb hisoblashni tushunish kerak.

Konstitutsiyaning 15-moddasi uchinchi qismiga binoan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari huquqiy tizimning tarkibiy qismi, deb belgilanganlik holati ham ularni milliy huquqdan ustun deb hisoblashga asos bo'la olmaydi. Ular qonunlardan (Konstitutsiyadan emas) tegishli shartlarda ustun bo'ladi. Aksincha, "ustun" deb hisoblash ularning "huquqiy tizimning tarkibiy qismi" holatiga o'ta zid keladi.

Konstitutsiyaning 15-moddasi to'rtinchi qismida "Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi", deb belgilangan. Ushbu holatni ham xalqaro huquqning milliy huquqqa nisbatan ustunligiga asos sifatida keltirish mumkin emas. Chunki, bu yerda ustunlik to'g'risida gap ketmayapti. To'g'ri, ayrim davlatlarning konstitutsiyalarida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari qonunlarga nisbatan (konstitutsiyaga emas) ustuvorlikka egaligi (masalan, GFRning Asosiy qonuni 25-moddasi) aks ettirilgan. Bu yerda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi uning qonunidan qaysi holatda afzal (imtiyozli) bo'lishi to'g'risida gap ketmoqda. Rus tilidagi "преимущество" (afzal) so'zini "верховенство (prioritet) (ustuvor, ustunlik)" so'zidan farqlash lozim. Demak, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari afzalligini ularda "boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa" faqatgina qonunga nisbatan qo'llash mumkin. Ularni butun qonunchilikka (milliy huquqqa) va ayniqsa Konstitutsiyaga nisbatan afzalroq, deb hisoblash mutlaqo mumkin emas.

Xalqaro huquq va milliy huquq nisbati masalasini yanada to'liq anglash uchun shu sohada qo'llaniladigan ayrim tushunchalar ustida to'xtalib o'tish lozim.

Jumladan, yangilangan Konstitutsiyada "xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari" tushunchasi qo'llanilgan. Yuridik va ilmiy manbalarda yozilishicha, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarining aniq ta'rifi (ro'yxati) mavjud emas. Lekin bir narsa aniqki, bu tushuncha "xalqaro huquq" tushunchasiga nisbatan tor hisoblanadi. Xalqaro huquqning shunday prinsip va normalari borki (masalan, kuch ishlatmaslik, aralashmaslik) ularni jumlayi jahon e'tirof etadi. Ular xalqaro huquqning bir qismi hisoblanadi. O'zbekiston ham ularni huquqiy tizimining tarkibiy qismi, deb hisoblaydi (Konstitutsiyaning 15-moddasi uchinchi qismi). Biroq, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarini milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismi deb hisoblanishini, xalqaro huquqning ustuvorligi degan tushuncha bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarining O'zbekiston huquqiy tizimi tarkibiga kiritilishi, yangilangan Konstitutsiyada belgilangandek ularga asoslanishning ayni amaliy namoyonidir.

Xalqaro huquq va milliy huquq nisbati masalasiga "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari" tushunchasi bevosita bog'liqdir. Ushbu tushuncha O'zbekiston

tashqi siyosatining mazmun-mohiyati tubdan o'zgarganligi hamda milliy huquq tizimi konstitutsiyaviy isloh qilinganligi natijasi o'laroq Konstitutsiyaga ilk bor kiritilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida "boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa" qonundan afzal bo'lishi tan olingan. Ular qonundan afzal bo'lishi mumkin, lekin Konstitutsiyadan emas. Biroq, bu holatni xalqaro huquqning milliy huquqdan ustunligi, deb bo'lmaydi.

Yangilangan Konstitutsiyaga ko'ra xalqaro huquqning "ustunlik" prinsipining inkor etilishi amaliyot uchun nima beradi? Dunyoda globalizm, gegemonizm, neoliberalizm va shunga o'xshash boshqa jarayonlar avjiga chiqmoqdaki, bundan maqsad rivojlanayotgan davlatlarni iqtisodiy kuchli davlatlar "domiga" tortish ekanligini anglab yetish qiyin emas. Shunday sharoitlarda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarini ustun, deb hisoblash bunday jarayonni rag'batlantiradi. Bu masalada jamiyatda ikki xil fikr bo'lishi mumkin emas. Aks holda davlat suvereniteti, mustaqilligiga raxna soladigan vaziyatlar vujudga kelishi mumkin. Xalqaro huquqning ustuvorligini targ'ib qiladiganlar uni tashqi bosim va xavf manbai bo'lishi mumkinligini o'ylab ko'rishlari lozim.

Xalqaro huquq ustuvorligini inkor etish, tan olinmagan O'zbekistonga xalqaro shartnomalar va shartlarni majburlab kiritish imkoniyatining oldi olishga asos bo'ladi. Misol tariqasida shuni aytib o'tish mumkinki, 2022-yilning yanvarida Yevropa davlatlari energetika vazirlarining klimat bo'yicha tuzilgan xalqaro shartnomalarni bajarishga bag'ishlangan uchrashuvida Yevropada ko'mir konlarini yopish talablarini boshqa, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham tatbiq etish, bordi-yu bu davlatlar talabni bajarmasalar, ularga soliq solish kerakligini muhokama qilgan. Rivojlanayotgan davlatlarga, masalan, O'zbekistonga bunday talabni qo'yish to'g'ri kelmaydi. Endilikda yangilangan Konstitutsiyaga ko'ra xalqaro huquqning ustuvorligi bekor qilinganligi tufayli bunday talablar O'zbekiston uchun muammo tug'dirmaydi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda ayrim davlatlar milliy (ichki) huquqning ustunligini qaror toptirish borasida katta urinishlar qilmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti 2020-yilda parlamentga murojaatida ichki huquq ustuvorligini mustahkamlash asosiy vazifa ekanligini ta'kidlagan. Bunga Yevropa Ittifoqining bosimi kuchayib borayotganligini asos qilib ko'rsatilgan. ("Аргументы и факты" gazetasi, 2020-yil 6-son) O'zbekiston Konstitutsiyasidan ustunlik so'zining chiqarilishini ham milliy huquq ustunligini ta'minlash borasida olib borilgan dona siyosatning natijasi, deb tushunish lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Konstitutsiyaga kiritilgan yangiliklar shunchaki hayotiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida tanlab olingan emas. Ular obdon o'ylanib, mamlakatimiz ichki rivojlanish qoidalari va xalqaro muhitda yuz berayotgan voqeliklarga asoslanib Konstitutsiyaga kiritilgan. Bu yangiliklar O'zbekistonda kuchli siyosiy sezgirlikning namoyon bo'lishi, dunyoda yuz berayotgan jarayonlarni aniq nishonga olib, qarorlar qabul qilishning yorqin ifodasidir.